O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
_____ G.I.Muxamedov
“___” 2025 yil

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	70510105 - Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (biologiya) 70530104-aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo) 70530203-aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) 70110101-pedagogika nazariyasi va tarixi 70110301-maxsus pedagogika (surdopedagogika) 700220303-ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) 70110801 - Ona tili va adabiyoti: rus tili 70110801 - Ona tili va adabiyoti: qozoq till 70111102-ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta’limi) 70110901-xorijiy til va adabiyot 70110201-ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) 70110502-muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi 70111201-jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi 70110401-ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlag‘ich ta’lim) 70110501-tasviriy san’at

Chirchiq – 2025

Fan/modul kodi YaOz'TSTTI 1105	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar	60	90	150

2. **I. Fanning mazmuni.**

Fanning o’qitishdan maqsad – ilmiy, ta’lim va ma’naviy muassasalar va boshqa tashkilotlarda faoliyat olib boradigan bo‘lajak o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar hamda boshqa soha vakillariga bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatini hamda yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar to‘g‘risida magistrlarga o‘rgatishdan iborat..

Fanning vazifasi –

yangilanayotgan O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va xalqaro hamkorlik masalalari, jumladan, ta’lim sohasida olib borilayotgan o‘zgarishlarni talabalarga yetkazish orqali yoshlarni har tomonlama yetuk, mamlakat taraqqiyotiga dahldorlik ruhida tarbiyalash, mas’uliyatini oshirish, yoshlarda bu davr bo‘yicha yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asari belgilab berilgan ustuvor g‘oyalar, vazifalar, ulardan ko‘zlangan maqsadlar, yangilanish va taraqqiyot omillari to‘g‘risida chuqur bilim berish;

Uchinchi renessansning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy ildizlari to‘g‘risida chuqur bilim orqali ularda vatanga muxabbat, dahldorlikda tarbiyalash;

ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanishlar, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi ustuvor vazifalar bilan tanishtirish.

dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;

yoshlarga mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini yoritib bergan holda ulardagi Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamlash;

yoshlarda ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi turli xil hatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish;

sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga keng e’tibor berish.

II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va ta’lim tizimidagi islohotlar” o’quv fanining maqsadi va vazifalari

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi renessansni barpo etish borasidagi islohotlar.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi strategik islohotlar. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – ta’lim tizimidagi islohotlar” o’quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar” fanining tutgan o‘rni. Fanning nazariy asoslarini ishlab chiqishda Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarining metodologik ahamiyati.

2-mavzu: 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalashlari

«Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida belgilangan vazifalar. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish borasidagi vazifalar.

3-mavzu: Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini. taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish borasidagi islohotlarning asosiy maqsad-vazifalari. Mahalla instituti, mahalliy boshqaruv organlari, OAVlari faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish vazifalari. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish erkin fuqarolik jamiyatining muhim sharti ekani. Taraqqiyot strategiyasi: qonun ustuvorligining muhim kafolati. Adolat va qonun ustuvorligi — inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy sharti.

4-mavzu: Pedagog faoliyatida Yangi O‘zbekiston g‘oyasi va Uchinchi Renessansning beshta muhim xalqasi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalar

Yangi O‘zbekiston orzusi. Yangi O‘zbekiston tushunchasi va uning asosiy mezonlari. Yangi O‘zbekiston barpo etish strategik vazifa sifatida. Sh.Mirziyoyevning “Buyuk kelajak bugundan boshlanadi” da’vatining mohiyati.
Renessans uyg‘onish, ilmiy uyg‘onish, ma’rifatni anglash demakdir. Renessans poydevorini barpo etish masalalari. Sh.Mirziyoyev tomonidan Uchinchi renessans masalasini strategik masala sifatida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilishi va uning asosiy sabablari. Uchinchi Renessansning beshta muhim halqasi: oila, maktabgacha ta’lim; maktab ta’limi; oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi; ilmiy madaniy muassasalar. Ta’lim jarayonida Uyg‘onish davrining beshta asosiy ustunlari faoliyatlarini uyg‘unlashtirishda pedagog oldidagi vazifalar.

5-mavzu: Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish suratlarini taminlash

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish soxasidagi asosiy vazifalar. Milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish. Iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor

mexanizmlari rolini oshirish. Xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish. Davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish. Fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish. Ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

6-mavzu: Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini va ta’lim sifatini oshirish

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish. Sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish. Oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish. Davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish masalasi. Oliy ta’lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish. «El-yurt umidi» jamg’armasi faoliyati. “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

7-mavzu: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish

Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlari. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari o’qishni tashkil etish. Global innovatsion indeksda O’zbekiston Res’ublikasining o’rnini.

8-mavzu: Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O’zbekistonda fuqarolar pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish. Aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish. O’zbekistonda sog’liqni saqlash tizimini raqamlashtirish strategiyasi. Kam ta’minlangan oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlar.

9-mavzu: Mamlakat aholisi o’rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi isloxotlar

Taraqqiyot strategiyasida aholisi o’rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi isloxotlar. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Respublika yoshlari o’rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish. Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish.

10-mavzu: 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari

Ayol va uning jamiyat hayotidagi o’rni. Gender tenglikni ta’minlash siyosatini. Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari. Ta’lim tizimidagi isloxotlarda xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatlar.

11-mavzu. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish. Yoshlarda sog’lom turmush tarziga intilishni shakllantirish. Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta’lim-tarbiya.

12-mavzu. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

«Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat» kontse'tsiyasini amalga oshirish. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash. «Yoshlar - Yangi O'zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida «Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans» g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash. Ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish. Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi.

13-mavzu. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish. Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan. BMT va O'zbekiston: terrorizimga qarshi kurash va inson huquqlari sohasida hamkorligi. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, 'ragmatik va faol tashqi siyosat olib borish. Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash. O'zbekiston va Markaziy Osiyo hamda Evrona davlatlari hamkorligi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish

14-mavzu. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish. Yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. Oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.

15-mavzu. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ta'limga oid masalalar

"O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi asosiy g'oyalar. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish. Xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash. Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash. Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish. Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish. Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va ta'lim tizimidagi islohotlar"

o‘quv fanining maqsadi va vazifalari

2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalashlari

3. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini. taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish

4. Pedagog faoliyatida Yangi O‘zbekiston g‘oyasi va Uchinchi Renessansning beshta muhim xalqasi faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalar

5. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish suratlarini taminlash

6. Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini va ta’lim sifatini oshirish

7. Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish

8. Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash

9. Mamlakat aholisi o’rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi isloxotlar

10. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari

11. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish

12. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish

13. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish

14. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

15. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ta’limga oid masalalar

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” tamoyillari.

2. Umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlarni mamlakatimiz miqyosida olib borilayotgan islohotlar bilan bog‘liq xolda o‘qitilishining ahamiyati.

3. Uchinchi Renessansning beshta muhim halqasi faoliyatini muvofiqlashtirishda ta’lim jarayonidagi vazifalar.

4. Sh.Mirziyoyev tomonidan Uchinchi renessans masalasini strategik masala sifatida milliy g‘oya darajasiga ko‘tarilishi va uning asosiy sabablari.

5. Uchinchi Renessansning beshta muhim halqasi: oila, maktabgacha ta’lim; maktab ta’limi; oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi; ilmiy madaniy muassasalar.

6. Ta’lim jarayonida Uyg‘onish davrining beshta asosiy ustunlari faoliyatlarini uyg‘unlashtirishda pedagog oldidagi vazifalar.

7. Yangi O‘zbekiston orzusi. Yangi O‘zbekiston tushunchasi va uning asosiy mezonlari.

8. Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalashda mustaqillik uchun kurash olib borgan milliy qahramonlar faoliyatidan foydalanish.

9. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston me’mori va tashabbuskori.

10. Yoshlarda ogohlik va daxldorlik tuyg‘ularini tarbiyalashda mamlakatimizda

	amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning tutgan roli. 11. Yangi O‘zbekiston va Uchinchi renessansning poydevorini yaratishda pedagoglar oldidagi vazifalar. 12. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlardagi ilmiy-madaniy ko‘tarilish, uning jahon ilm-fani rivojiga ulkan ta’siri. 13. Ilk renessans davrida ilm-fan yuksalishining asosiy xususiyatlari. 14. Bo‘lajak pedagog kadrlarda diniy bag‘rikenglik kompetensiyalarini tarbiyalashda milliy g‘oyaning diniy ildizlarining o‘rni. 15. Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasining qabul etilishi va uning ahamiyati 16. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o’zgarishlar mazmun va mohiyati. 17. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruv tizimida amalga oshirilgan islohotlar. 18. Yoshlarni tarbiyalashda axborot xavfsizligi. 19. O‘zbekiston Res’ublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o‘zgarish va muammolar). 20. Qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar. 21. O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. 22. Milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar. 23. O‘zbekistonni xalqaro reytinglardagi ko’rsatkichlarini ko’tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati. 24. Siyosiy-huquqiy sohadagi ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O’zbekistonning integrasiyalashuvi. 25. Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish 26. Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash. 27. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish 28. Oila, talim tashkilotlari va mahallalarda mahnaviy tarbiyaning uzviyligini taminlash. 29. Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g’oya asosida birgalikda kurashish 30. Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O’zbekistonning integrasiyalashuvi. Dissertatsiya mavzusiga oid sotsiologik so’rovnomalar, laboratoriya ishlarini olib borish va ularning natijalaridan tegishli joyda foydalanish tavsiya etiladi.
3.	**VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:** “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asari belgilab berilgan ustuvor g‘oyalar, vazifalar, yangilanish va taraqqiyot omillari to‘g‘risida, Uchinchi renessansning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy ildizlari, “Davlat-inson uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan siyosatning mohiyati, Adolatli ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, ta’lim va tarbiyaga, yoshlarga berilayotgan keng e’tibor, erishilgan natijalar xususida, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanishlar, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi ustuvor vazifalar, xavfsizlik va ahil qo‘shnichilikka asoslangan, o‘zaro manfaatli tashqi siyosatning ustuvorlar yo‘nalishlari to‘g‘risida **tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;** “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asari belgilab berilgan ustuvor g‘oyalar, vazifalar, yangilanish va taraqqiyot omillarini, Uchinchi renessansning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy ildizlarini, “Davlat-inson uchun” tamoyili

	asosida olib borilayotgan siyosatning mohiyati, Adolatli ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, ta’lim va tarbiyaga, yoshlarga berilayotgan keng e’tibor, erishilgan natijalar xususida, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanishlar, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi ustuvor vazifalarni tahlil eta olish, tushuntirib berish **bilishi va ulardan foydalana olishi ko‘nikmasiga;** “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asari belgilab berilgan ustuvor g‘oyalar, vazifalar, yangilanish va taraqqiyot omillarini, Uchinchi renessansning ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy ildizlarini, “Davlat-inson uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan siyosatning mohiyati, Adolatli ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari, ta’lim va tarbiyaga, yoshlarga berilayotgan keng e’tibor, erishilgan natijalar xususida, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanishlar, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi ustuvor vazifalarni tahlil eta olish, bu jarayonning faol ishtirokchisi bo‘la olish **malakasiga ega bo‘lishi lozim**.
4.	**VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	**IX. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
6.	**X. Asosiy adabiyotlar:** 1. Isabayev M. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi (Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari). O‘quv qo‘llanma. – Warsaw: iScience Sp. z o. o., 2022. – 317 b. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. 416 bet. **XI. Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. 4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. 464 bet. 5. G‘affarova G.G‘. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish: imkoniyat va istiqbollari. – Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2022. – 156 b.

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
3-FILIAL

	6. Mahmudova G.T., G‘affarova G.G‘., Jalalova G.O. O‘zbekistonda islohatlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. – Toshkent: “Noshir”, 2020. – 160 b. 10 b.t. 7.“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-5847-son 08.10.2019 **Axborot manbalari** http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb sayti. http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. www.cspi.uz – Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti www.natlib.uz - (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portal
7.	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “___” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan**
8.	**Fan/modul uchun ma’sul:** **G.G‘. G‘affarova** - CHDPU, “Milliy g’oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)
9.	**Taqrizchilar:** **N.A. Nazarov** - CHDPU, “Milliy g’oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc) **G.S. Yunusova** – Buxoro muxandislik texnologiya instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor